



INKLYUZIV TA'LIM: ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMINING MUHIM YO'NALISHI

YULDASHOVA BUVIOYSHA

Sharof Rashidov tumani 28-

maktab

boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada inklyuziv ta'limning mohiyati, nazariy asoslari va zamonaviy ta'lim tizimidagi ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalarning umumta'lim muassasalarida teng huquqli ta'lim olishini ta'minlashga qaratilgan tizim sifatida yoritilgan. Maqolada inklyuziv ta'limning asosiy tamoyillari, afzalliklari hamda uni joriy etishda yuzaga keladigan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning pedagogik amaliyotdagi ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, maxsus ehtiyojli bolalar, teng imkoniyatlar, individuallashtirish, ta'lim muhiti.

Аннотация. В статье научно анализируются сущность, теоретические основы и значение инклюзивного образования в современной системе образования. Инклюзивное образование рассматривается как система, направленная на обеспечение равного доступа к обучению для детей с особыми образовательными потребностями в общеобразовательных учреждениях. Освещены основные принципы, преимущества и проблемы внедрения инклюзивного образования, а также пути их преодоления. Особое внимание уделено реформам, реализуемым в Республике Узбекистан в области развития инклюзивного образования, и их практической значимости для педагогической деятельности.

Ключевые слова: Инклюзивное образование, дети с особыми потребностями, равные возможности, образовательная среда.

Annotation. This article provides a scientific analysis of the essence, theoretical foundations, and significance of inclusive education in the modern educational system. Inclusive education is viewed as a system aimed at ensuring equal access to education for children with special educational needs within mainstream schools. The paper discusses the key principles, benefits, and challenges



of implementing inclusive education, as well as possible solutions. Special attention is given to the reforms carried out in Uzbekistan to promote inclusive education and their practical importance for educational practice.

Keywords: inclusive education, children with special needs, equal opportunities, learning environment.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar ta'limning insonparvarlik tamoyillariga asoslangan holda rivojlanishini taqozo etmoqda. Har bir bolaning jismoniy, aqliy yoki ijtimoiy holatidan qat'i nazar, sifatli ta'lim olish huquqi mavjud. Shu jihatdan inklyuziv ta'lim zamonaviy ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Asosiy qism. Inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi – alohida ehtiyojlarga ega bo'lgan bolalarni umumta'lim muassasalarida sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda ta'lim jarayoniga jalb etishdan iborat. Bunda ta'lim muhiti, o'quv dasturlari va pedagogik metodlar bolaning individual ehtiyojlariga moslashtiriladi.

Inklyuziv ta'limni samarali amalga oshirishda pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyasi, psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash hamda ota-onalar bilan hamkorlik muhim ahamiyatga ega.

Inklyuziv ta'lim tizimida quyidagi maqsad va vazifalar hal etilishini talab etadi:

-ta'lim muassasida imkoniyati cheklangan bolalar va usmirlarning ta'lim olishlari uchun zaruriy psixologo-pedagogik, korrektsion sharoitlarni yaratish, ularning imkoniyatiga yo'naltirilgan umumta'lim dasturlari va korrektsion ishlarni amalga oshirish orqali ruhiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish;

-o'quvchilarning ta'lim dagi tenglik huquqini kafolatlash;

-jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va soglom bolalarning ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy hayotga erta moslashtirish;

-imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarni oilalardan ajramagan holda yashash huquqini ruyobga chiqarish;

-jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarga nisbatan do'stona va mehr-muhabbatli munosabatni shakllantirishdir.

Inklyuziv ta'lim ni qo'llab-quvvatlash yo'llari

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim -tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi



tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoniga muvofiq O'zbekistonda inklyuziv ta'lim ni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim -tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida bir qancha ishlar amalga oshirildi.

2020-yil 13-oktabr kuni "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim -tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4860-son O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori qabul qilindi va shu asosda inklyuziv ta'lim ga bo'lgan e'tibor yanada kuchaytirildi.

Ta'lim tizimini joriy etish har doim ma'lum bir qonun qoidalarga, tamoyillarga asoslanishni talab etadi. Inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilishda esa quyidagi tamoyillarga asoslaniladi:

- Inklyuziv ta'lim ning e'tirof etilishi.
- Inklyuziv ta'lim ning barcha uchun ochik bo'lishi tamoyili.
- Bog'lanishning mavjud bo'lishi tamoyili.
- Markazlashtirilmagan bo'lishi tamoyili.
- Inklyuziv ta'lim da kompleks yondashish tamoyili.
- Inklyuziv ta'lim da moslashuvchanlik tamoyili.
- Malakaviylik tamoyili

Ba'zi davlatlarda esa umumiy ta'lim borasida qonun yoki qarorlar qabul qilinganda nogiron bolalarning ta'lim masalasi unga kiritilmaydi. Ammo inklyuziv ta'lim ni tan olish faqatgina qonun chiqarish bilangina bog'lik bo'lmaydi.

Diskriminatsiya (odamlarni ajratish) va ijtimoiy noto'g'ri fikrlashga qarshi kurashish eng muhim narsadir. Ya'ni inklyuziv ta'lim ni e'tirof etgan holda, aholi o'rtasida targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish eng birinchi galdagi masaladir.

Xulosa. Inklyuziv ta'lim jamiyatda ijtimoiy tenglik va adolatni ta'minlashga xizmat qiladi. U alohida ehtiyojli bolalarning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga, sog'lom bolalarda ham bag'rikenglik va ijtimoiy mas'uliyat tuyg'ularini shakllantiradi. Shu sababli inklyuziv ta'limni rivojlantirish davlat va jamiyatning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020 yil 23-sentyabr. O'RQ-637-son <https://lex.uz/docs/5013007>

2. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni, 2008 yil 7-yanvar O'RQ-139-son <https://www.lex.uz/acts/1297315>



3. O‘zbekiston Respublikasining “Keksalar, nogironlar va aholining boshqa ehtiyojmand toifalari uchun ijtimoiy xizmatlar to‘g‘risida”gi Qonuni 2016 yil 26 dekabrda PQ-415-son <https://www.lex.uz/docs/3083192>

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/3107036>

5. O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining 2017 yil 1 dekabrda “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5270-sonli Farmoni. <https://www.lex.uz/acts/3436192>

9. Nurmuhamedova L.Sh. Nogiron bolalarning huquqiy asosalari va ilmiy-nazariy masalalari. Defektolog kadrlarni tayyorlash jarayoniga innovatsion ta‘lim texnologiyalarini tadbiq etish: muammolar va istiqbollari.- T.,2014

10. D.S.Qaxxarova —Inklyuziv ta‘lim texnologiyasi|| Toshkent. 2014